

Obektlarni foydalanishga tayyor holda qurishga doir pudrat shartnomasi

2022 y. «12» 9

51-3-44-OB/2022-son

O'smat shaxarchasi

Keyingi o'rirlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan Baxmal tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (buyurtmachining nomi) nomidan Nizom asosida ish ko'rvuchi (ustav, nizom, ishonchnoma) **Abdullaev Mingboy Suyunovich** bir tomondan va keyingi o'rirlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan **"MANSUR STROY HOUSES"** MCHJ nomidan Nizom (ustav, nizom, ishonchnoma) asosida ish ko'rvuchi **O'ktam Sheraliev ikkinchi** tomondan **Baxmal tumani Mustaqillik Bayot ko'chasini joriy ta'mirlash (1.310 km)** obektni foydalanishga tayyor holda qurishga doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. Ta'riflar

1. Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi:

ijro hujjatlari – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan bирgalikda obekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarning sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarning yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;

qurilish maydoni – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi.

Obektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

vaqtinchalik inshootlar – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdag'i vaqtinchalik binolar va inshootlar;

berkitiladigan ishlar – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'limgan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

shartnoma narxini bo'lib chiqish – ishlarning har bir bosqichi va/yoki turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo'yicha obektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. Shartnoma mavzusi

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq **Baxmal tumani Mustaqillik Bayot ko'chasini joriy ta'mirlash (1.310 km)** bo'yicha smeta loyihasida ko'zda tutilgan ishni foydalanishga tayyor holda tamirlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lojni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi (tender) natijasida aniqlangan va tender komissiyasining qarori (**29.08.2022 yildagi 139963-son bayonnomasi**) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda **805 000 000 (Sakkiz yuz besh million)** so'mni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymatini uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;

ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

obektning qurilishi bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda.

5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Tegishli asoslar mayjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. Pudratchining majburiyatları

7. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga ilova qilingan smeta hujjatlariga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

Smeta hujjatlariga muvofiq qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash;

qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

Buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o'rnatish;

qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;

mazkur shartnoma bo'yicha obektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab **o'n kun muddatda** qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;

qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda obektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. Buyurtmachining majburiyatları

9. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini obekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

Pudratchining barcha murojaatlarini **besh kun muddatda** ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga shartnomaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab **ikki kun davomida** Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

VI. Ishlarni bajarish muddatlari

10. Shartnoma qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi.

11. Pudratchi birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

12. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqtini ishlar boshlangan kundan e'tiboran **30 kunni** tashkil etadi.

13. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

VII. To'lovlar va hisob-kitoblar

14. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlarni umumiyligi joriy qiymatining 30 foizi miqdorida avans o'tkazadi.

15. Obektning shartnomaviy joriy qiymatining qolgan 70 foizi uchun Buyurtmachi va Pudratchi o'rtasidagi uzil-kesil hisob-kitob qurilish tugallangandan keyin va obekt qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin 30 ish kuni mobaynida amalga oshiriladi.

16. Pudratchi obekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnama bo'yicha obektga mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Obekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar obektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

17. Buyurtmachi mazkur shartnama bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnama kuchga kirgan kundan boshlab **o'ttiz kun** mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlarni uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

VIII. Ishlarni bajarish

18. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlarni ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarning shartnama shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

19. Texnik auditor ishlarni bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

20. Pudratchi texnik auditorni ishslash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarini hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

21. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan obektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

22. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

23. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spesifikatsiyalarga, texnik reglamentlarga yoki standartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlarga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

24. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilarini tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

25. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydonдан qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

IX. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari

26. Agar ushbu shartnama bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlari mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnama bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlari yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

27. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilib qilishini muhokama qiladilar.

28. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnama bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

38. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

39. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

40. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XIII. Tomonlarning mulkiy javobgarligi

41. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

42. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlarni yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

43. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlarni tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning **20 foizi miqdorida jarima** to'laydi.

44. Pudratchi obektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi obekti shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlarni qiymatining 0.5 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi sifatsiz bajarilgan ishlarni qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

45. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalananadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

46. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

XIV. Tomonlarning korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha majburiyatları.

47. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-birlariga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu xarakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

48. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darxol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telfoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izox talab qilish huquqigaega va murojaatni olgan tomon 10 (un) ish kuni mobaynida tushuntirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

49. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsiyon xaf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsiyon xolatni

pasayishiga olib kelmasa , boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

49. Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiya qarshi qo'shimcha shartlarga rioya etilmaganda, ikkinchi taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo'ladi.

XV. Nizolarni hal etish tartibi

50. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda **Iqtisodiy sud** tomonidan ko'rib chiqiladi.

XVI. Alovida shartlar

51. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

52. Pudratchi qurilish obektiga yoki uning alovida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonaga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

53. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.


54. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahdashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

55. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

56. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

57. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

XVII. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari:

Buyurtmachi : Baxmal tuman Obodonlashtirish boshqarmasi O'smat shaxarchasi Samarqand ko'chasi ShXV 100022860082047045204110007 INN 201 029502 OKONX 90211 O'ZB.Res.Moliya vazirligi YaXV 2340 2000 3001 0000 1010 Markaziy bank Toshkent shaxri XKKM INN 201 122 919 MFO 00014 Raxbar  M. Abdullaev	Pudratchi: "MANSUR STROY HOUSES" MCHJ Jizzax viloyati Zomin shaxri Bunyodkor MFY A.Temur ko'chasi 7 uy X/r 2020 8000 5051 4379 3001 Agro bank Zomin filiali INN 306 867 894 MFO 00131 Raxbar  O'Sheraliev
--	--



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

№ MQ12762881

1. Loyihaning turi	Shartnoma
2. Loyihaning nomi	Pudrat shartnomasi
3. Loyihasining mazmuni	«Buyurtmachi» deb yuritiladigan Baxmal tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (buyurtmachining nomi) nomidan Nizom asosida ish ko‘rvuchi (ustav, nizom, ishonchnoma) Abdullaev Mingboy Suyunovich bir tomondan va keyingi o‘rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan “MANSUR STROY HOUSES” MCHJ nomidan Nizom (ustav, nizom, ishonchnoma) asosida ish ko‘rvuchi O‘ktam Sheraliev ikkinchi tomondan Baxmal tumani Mustaqillik Bayot ko‘chasini joriy ta‘mirlash (1.310 km) obektni foydalanishga tayyor holda qurishga doir mazkur pudrat shartnoma
4. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot	Hujjat loyihasi Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022 yil 07-sentabr kuni dasturga kiritilgan. Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuristkonsulti



A. Ergashev

2022 yil «12» sentabr

«ТАСДИҚЛАЙМАН»

Бахмал тумани Ободонлаштириш

бошқармаси бошлиғи

М.Абдуллаев

«05» сентябр 2022 йил



Бахмал тумани Ободонлаштириш бошқармаси openbudget (Менинг йўли) лойихаси маблағлари хисобидан Бахмал тумани Мустакиллик Баёт кўчасини жорий таъмирлаш (1,310 км) учун пурдатчини аниқлаш бўйича танлов ўтказиш комиссиясининг

МАЖЛИС БАЁННОМАСИ № 8

2022 йил «05» сентябр

Ўсмат шахарчаси

Кун тартиби:


Ахборот парталига жойлаштирилган эълон тўғрисида маълумот


1. Эълон берилган сана: **19.08.2022** йил
2. Берилган эълон тартиб рақами: **22110012139963**
3. Бюртма предмети: **Бахмал тумани Мустакиллик Баёт кўчасини 1,310 км қисмини жорий таъмирлаш**
4. Ўлчов бирлиги: **Хизат**
5. Бирлик нархи: **Сум**
6. Берилган миқдори: **1**
7. Эълон берилиш нархи: **813 750 000**

Бахмал тумани Мустакиллик Баёт кўчасини жорий таъмирлаш (1,310 км) учун пурдатчини аниқлаш бўйича 2 кун мобайнида комиссия аъзоларига ва Бахмал тумани Ободонлаштириш бошқармасига хеч қандай шикоят ва этирозлар келиб тушмади “MANSUR STROY HOUSES” МЧЖ томонидан Бахмал тумани Мустакиллик Баёт кўчасини жорий таъмирлаш (1,310 км) бўйича тақдим этилган таклифни энг мақул ва мақсадга мувофиқ деб топилган ва бу талабгор танлов ғолиби деб топилган.


М.Абдуллаев


Н.Кулиев


А.Нарматов


Р.Султонов


Б.Атамуродов

**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 139963 на приобретение Жиззах вилоят
Бахмал тумани Мустақиллик МФЙ Баёт кучасини жорий таъмирлаш (1.310 км)**

Способ проведения электронный

Дата 29.08.2022

Время рассмотрения 29.08.2022 19:52

Конкурсная комиссия Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	ABDULLAYEV MINGBOY SUYUNOVICH	Raxbar	Baxmal TOB
Секретарь комиссии	MUXTOROV XAMDAM XOLIQULOVICH	Bosh xisobchi	Baxmal TOB
Член комиссии	NARMATOV AZAMAT XAZRATQULOVICH	Infartuzilma obyektlarini saqlash bulimi boshligi	Baxmal TOB
Член комиссии	SULTANOV RUSTAM SHAMSIDINOVICH	Obodonlashtirish obyektlarini saqlash bulimi boshligi	Baxmal TOB
Член комиссии	ATAMUROTOV BERDI ABDUROXMONOVICH	Texnik nazoratchi	Baxmal TOB
Член комиссии	KO'LIYEV NURIDDIN IBRAGIMOVICH	Bosh muxandis	Baxmal TOB

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 29.08.2022 года № лота 139963.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 95.00 / Весовой коэф. ценовой части: 5.00)

Мин. балл: 50

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по ремонту и содержанию автомобильных дорог
Подробное описание	Жиззах вилоят Бахмал тумани Мустақиллик МФЙ Баёт кучасини жорий таъмирлаш (1.310 км)
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	813 750 000.00
Стартовая сумма	813 750 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Талабгорнинг объект бўйича лойиҳа-смета ҳужжатлар билан танишганлиги, қурилиш объектини жойида ўрганганлик тасдиғи, Банқдан маълумот ва кафолат хати

Тип: Текстовое значение

Описание: Талабгорнинг объект бўйича лойиҳа-смета ҳужжатлар билан танишганлиги, қурилиш объектини жойида ўрганганлик тасдиғи, Банқдан маълумот ва кафолат хати

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
RAVSHANBEK JOHONGIR NUR МЧЖ	26	26	20	Экспертная		
ООО SAMARQAND UZBEKGASZUV QURILISH	26	26	0	Экспертная	Дисквалифицирован	Малумот тақдим килинмаган
SANGZOR TA'MINOT INVEST MCHJ	26	26 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va tadbirdorlik sub'ektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng jabol etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (PQ-4544 05.12.2019) asosida xujjatlar ilova qilinmoqda	24	Экспертная		
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	26	Кафолат хати тақдим килинди	22	Экспертная		
ASL MARS MO'JIZASI	26	Талабгорнинг объект бўйича лойиҳа-смета хужжатлари билан танишди, банк маълумотномаси ва расмлар илова қилинади	0	Экспертная	Дисквалифицирован	Малумот тақдим килинмаган

Критерий №2 Ташкилотда фаолият юритувчи ишчи-ходимлар сони тўғрисидаги маълумот. Талабгорнинг асосий воситаларга (офис, база, омборлар, ишлаб чиқариш цехлари, автогараж ва ҳ.к.) эгалиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Ташкилотда фаолият юритувчи ишчи-ходимлар сони тўғрисидаги маълумот. Талабгорнинг асосий воситаларга (офис, база, омборлар, ишлаб чиқариш цехлари, автогараж ва ҳ.к.) эгалиги

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
RAVSHANBEK JOHONGIR NUR МЧЖ	20	20	14	Экспертная		
ООО SAMARQAND UZBEKGASZUV QURILISH	20	20	0	Экспертная	Дисквалифицирован	Малумот тақдим килинмаган
SANGZOR TA'MINOT INVEST MCHJ	20	20 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va tadbirdorlik sub'ektlarini davlat xaridlari jarayoniga	17	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
		keng jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (PQ-4544 05.12.2019) asosida xujjatlar ilova qilinmoqda				
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	20	Асосий воситалар баланс курсаткичимизда тақдим килинганд. Ишчилар малумоти тақдим килинди	17	Экспертная		
ASL MARS MO'JIZASI	20	Ташкилотда фаолият юритувчи ишчи-ходимлар рўйхати, хужжатлари ҳамда асосий воситалар офис, база, омборлар хужжатлари илова қилинади	16	Экспертная		

Критерий №3 Жорий таъмирлаш ишларини бажариш учун зарур курилиш техникалари ва кичик механизмлари ва охирги З йилда объектнинг бошланғич нарҳига teng ёки ундан ортиқ ўхшашиб ишларни ўз кучи билан бажарганлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Жорий таъмирлаш ишларини бажариш учун зарур курилиш техникалари ва кичик механизмлари ва охирги З йилда объектнинг бошланғич нарҳига teng ёки ундан ортиқ ўхшашиб ишларни ўз кучи билан бажарганлиги

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
RAVSHANBEK JOHONGIR NUR МЧЖ	20	20	15	Экспертная		
ООО SAMARQAND UZBEKGASZUV QURILISH	20	20	0	Экспертная	Дисквалифицирован	Малумот тақдим килинмаган
SANGZOR TA'MINOT INVEST MCHJ	20	20 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va tadbirkorlik sub‘ektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (PQ-4544 05.12.2019) asosida xujjatlar ilova qilinmoqda	16	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	20	Техникалар малумоти	18	Экспертная		
ASL MARS MO'JIZASI	20	Жорий таъмирлаш ишларини бажариш учун зарур курилиш техникалари ва кичик механизмлари рўйхати ва хужжатлари илова қилинади	14	Экспертная		

Критерий №4 Талабгор ташкилотнинг 3 йиллик ўхшаш объектлар буйича иш тажрибасига эга эканлиги. Банқдан пул маблағлари айланмаси тўғрисидаги маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Талабгор ташкилотнинг 3 йиллик ўхшаш объектлар буйича иш тажрибасига эга эканлиги. Банқдан пул маблағлари айланмаси тўғрисидаги маълумот

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
RAVSHANBEK JOHONGIR NUR МЧЖ	25	25	16	Экспертная		
ООО SAMARQAND UZBEKGASZUV QURILISH	25	25	0	Экспертная	Дисквалифицирован	Маълумот тақдим килинмаган
SANGZOR TA'MINOT INVEST MCHJ	25	25 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va tadbirkorlik sub'ektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (PQ-4544 05.12.2019) asosida xujjatlar ilova qilinmoqda	16	Экспертная		
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	25	Бажарилган ишлар нусхалари таклим килинди	23	Экспертная		
ASL MARS MO'JIZASI	25	2019-2020-2021- йилларда бажарилган	16	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
		қурилиш монтаж ишлари бўйича форма-3 ва Форма-2 лари илова қилинади				

Критерий №5 Солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича муддати ўтган қарздорлиги мавжуд эмаслиги хакида маълумот. Талабгор инсофсиз ижрочиликнинг ягона реестрида қайд этилган бўлса ёки талабгор қайта ташкил этиш (бўлиниш, бирлашиш), тугатиш ёки банкротлик босқичида бўлса ва мулки хатлаб қўйилган бўлса

Тип: Текстовое значение

Описание: Солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича муддати ўтган қарздорлиги мавжуд эмаслиги хакида маълумот. Талабгор инсофсиз ижрочиликнинг ягона реестрида қайд этилган бўлса ёки талабгор қайта ташкил этиш (бўлиниш, бирлашиш), тугатиш ёки банкротлик босқичида бўлса ва мулки хатлаб қўйилган бўлса

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
RAVSHANBEK JOHONGIR NUR MЧЖ	9	9	0	Экспертная	Дисквалифицирован	Малумот эски сана
ООО SAMARQAND UZBEKGASUV QURILISH	9	9	9	Экспертная		
SANGZOR TA'MINOT INVEST MCHJ	9	10 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va tadbirkorlik sub'ektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng jaib etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (PQ-4544 05.12.2019) asosida xujjatlar ilova qilinmoqda	9	Экспертная		
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	9	Бугунги кун холатига солик ва бошка идоралардан карздорлик мавжуд эмас	9	Экспертная		
ASL MARS MO'JIZASI	9	Солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича муддати ўтган қарздорлик мавжуд эмаслиги хакида маълумотнома илова	9	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
		қилинади				

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	813 750 000.00	805 000 000.00 UZS	805 000 000.00	00.00	805 000 000.00	29.08.2022 18:23:38	5
SANGZOR TA'MINOT INVEST MCHJ	813 750 000.00	805 000 000.00 UZS	805 000 000.00	00.00	805 000 000.00	29.08.2022 12:07:44	5

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
OOO SAMARQAND UZBEKGASUV QURILISH	Не прошел	Не прошел	Не прошел
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	84.55	5	89.55
SANGZOR TA'MINOT INVEST MCHJ	77.9	5	82.9
RAVSHANBEK JOHONGIR NUR МЧЖ	Не прошел	Не прошел	Не прошел
ASL MARS MO'JIZASI	Не прошел	Не прошел	Не прошел

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 139963 от 29.08.2022 года на приобретение Жиззах вилоят Бахмал тумани Мустақиллик МФЙ Баёт кучасини жорий таъмирлаш (1.310 км) определила победителем:

MANSUR STROY HOUSES MCHJ
306867894

и резервный исполнитель: SANGZOR TA'MINOT INVEST MCHJ (304396668)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	ABDULLAYEV MINGBOY SUYUNOVICH	Согласен	
Член комиссии	NARMATOV AZAMAT XAZRATQULOVICH	Согласен	
Член комиссии	SULTANOV RUSTAM SHAMSIDINOVICH	Согласен	
Член комиссии	ATAMUROTOV BERDI ABDUROXMONOVICH	Согласен	
Член комиссии	KO'LIYEV NURIDDIN IBRAGIMOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП